

MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK HOLATNI BARQARORLASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

A'zamov Asliddin Akramovich

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turlari) yo'nalishi
I bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik davrida O'zbekistonda ekologik holatni yaxshilash, tabiatni va atrof - muhitni muhofa qilish borasida qabul qilingan qonun hujjatlari bayon etiladi. Bu boradagi qabul qilingan meyoriy hujjatlar va qilingan ishlarga doir xulosalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, O'zbekiston, ekologiya, atrof-muhit, meyoriy hujjatlar, tabiat, muhofaza qilish.

KIRISH

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida insoniyat misli ko'rilmagan darjada tahlikali ekologik muammolarga duch keldi. Bundan ikki asr muqaddam odamlar quvonch bilan kutub olgan texnikalar hamda zavod va fabrikardan chiqayotgan zaharli gazlar biz bilmagan holda dunyoimizni va ona tabiatimizni yo'q qilmoqda. Bu esa dunyo davlatlarini ekologik muammolarni oldini olishda o'zaro hamkorlik qilishni kuchaytirib, bunga doir xalqaro shartnomalar, qonun hujjatlari va qat'iy belgilan tartiblarni joriy qilishni o'rtaga qo'yemoqda. Afsuski, go'zal vatanimiz O'zbekiston ham bundan chetda qolmayapdi. Vatanimizga ham ko'plab ekologik muammolar tahdid solmoqda. Havoning ifloslanishi, Iqlimning keskin isib borishi, ichimlik suving kamayishi, Orol fojiasi, Janubiy hudidlarda yerlarning sho'rlanishi va shunga o'xshash ko'plab muammolar bizni domiga tortib bormoqda. Bu va bunga o'xshash muammolarni oldini olish maqsadida, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda ekologiyaga oid ko'plab qonunlar va meyoriy hujjatlar qabul qilindi. Aytish mumkinki, O'zbekiston 1992-yil 8-fevralda MDH davlatlari rahbarlari tomonidan imzolangan shartnomaga muvofiq tuzilgan Davlatlararo Ekologiya Kengashining to'la huquqli a'zosi hisoblanadi.

Yurtboshimiz ekologik muammolarni oldini olish maqsadida ko'plab xalqaro sessiyalarda, anjumanlarda va mittinglarda so'zga chiqib, bu kabi ekologik muammolarni oldini olish barchamizning pirovard maqsadimiz ekanligini, hamda birgalikda harakat qilishimiz kerakligini qayta, qayta takrorlab o'tdilar. Misol sifatida: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zga chiqdilar. Nutqida, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri – Orol fojiasiga alohida to'xtalib o'tdib, orol muammosi barchamizning muammomiz deya takidlab o'tdilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1992-yil iyun oyida Rio-de Janeyroda bo'lib o'tgan BMT ning Atrof muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro konferensiyasidan so'ng atrof muhit muammolari dunyo hamjamiyati uchun yangi ahamiyat kasb etdi.¹ 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi ekologiya va atrof muhitni himoya qilish sohasidagi asosiy qonun hisoblanadi. 1993-yili "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" va "Alovida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to'g'risida", 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar qabul qilingandan keyin O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar bilan birgalikda atmosfera havosiga salbiy ta'sirni kamaytirish choralari ma'lum tizimga solindi.

2007-yil oxirlariga ko'ra atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning jami hajmi 2 mln tonnagacha kamaydi. "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni 2000-yilda qabul qilinishi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan Davlat ekologik ekspertizasining aniq vazifalari belgilab berildi. Prezidentimizning 2017-yil 21-apreldagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq Respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog'ligiga zararli ta'sirini oldini olish, aholi darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, maishiy chiqindilarni yig'ish, saqlash tashish, utilizasiya qilish, qayta ishlash va ko'mish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qaytadan O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi etib tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi 1993-yilda "Ozon qatlagini muhofaza qilish bo'yicha" Vena konvensiyasiga, 1995-yilda "Biologik xilma-xillik to'g'risida"gi Konvensiyaga, "Butun jahon madaniy va tabiiy meroslarni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga, 1997-yilda "Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish to'g'risida"gi konvensiyaga, 1998-yilda esa "Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish" bo'yicha konvensiyaga, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha hamkorlik sohasidagi qator davlatlararo

¹ Ashurov.M.S, SHokirova.Yu.S "Ekologik muammolar va ularni hal qilishda ekologik menejmentning strategik yo'nalishlari" Farg'ona 2021. Turdimambetov I., Madreymov A., Foldvary L., Oteuliev M., Kurbanov M., Utarbaeva K., Bekanov K. Influence of Adverse Ecological Factors on the Incidence of Malignant Neoplasms. E3S Web Conf. Volume 227, 2021, Annual International Scientific Conference on Geoinformatics – GI 2021: "Supporting sustainable development by GIST".

bitimlarga qo'shilgan². Vatanimizda, 1999-2005-yillarda atrof muhitni muhofaza qilish asnosida 1999-yil 29-oktabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda 1999-2005-yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha harakatlar dasturi" qabul qilindi.³ Bu dastur negizida O'zbekistonda ekologik holatni yaxshilash bo'yicha 165 ta tadbir rejalashtirilgan edi.

2005-yilning avgust sanasiga ko'ra ushbu tadbirning 82.4 foizi yoki 136 tasi bajarildi. Ushbu tadbir natijasida atmosferaga ifloslangan moddalarning tashlanishi 2,1 ming tonnadan ko'proqqa kamaytirildi, etillashtirilgan benzin ishlab chiqarish 16,9 foizni tashkil etdi. Dasturni bajarish yillari davomida Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi mutaxassislari, aloqador vazirliklar, idora va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekistonda quyidagi 5 ta qonun qabul qilindi. SHulardan: 2000-yil 25-mayda "Ekologiya ekspertiza to'g'risida", 2000-yil 31-avgust sanasida "Radiatsion xavfsizlik to'g'risida", 2002-yil 5-aprelida "Chiqindilar to'g'risida" va "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida" 2004-yil 13-dekabrdagi qonunlari qabul qilindi. Bundan tashqari, yurtimizning janubiy hududlarida ham ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish yuzasidan ko'plab tadbirlar amalga oshirildi.

Qashqadaryo viloyati tabiatni muhofaza qilish bo'limi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 27-may sanasidagi 142-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2013-2017-yillarda O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risida"gi dasturga asosan Qashqadaryo viloyati bo'yicha 17 ta tadbir ishlab chiqildi.² 2023-yil 5-may sanasida "Surxondaryo viloyatida tuman va shaharlar darajasida tabiat resurislardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish, hududlarda ekologik vaziyatni yaxshilash, viloyatni chiqindisiz hududga aylantirish borasida ekologik dasturni tasdiqlash to'g'risida" Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining qarori ham qabul qilindi. Shu kabi ekologiyaga oid qonunlar, qarorlar va meyoriy hujjatlar har yili O'zbekistonning har bir viloyat va hududlarida joriy qilinmoqda³.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Bugungi kunda har daqiqada vatanimizning 9 kvadrat metr hududi cho'llanib bormoqda, ekologik muammolar esa kun sayin shiddat bilan o'sib bormoqda, Agar biz Ona tabiatimizni himoya qilmasak, yo'qorida ko'rsatilgan qonunlar bilkan tanishib, ularga rioya qilmasak, transport va zavodlardan chiqayotgan zaharli gazlarni kamaytirmasak, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmasak dunyoimiz ko'z o'ngimizda xarob bo'ladi. Bizdan keyingi avloddlarga

¹ |X.T.Tursunov, T.U Rahimova."Ekologiya" Toshkent 2006. 2. Abdunazarov H.M., Choriev.A.Q., Embergenov N.J., Oteuliev M.O. Issues of human economic activity and environmental protection. "Экономика и социум" №11(78) 2020, P. 23-26.3. Xolmo'minov J. "Tabiat va ekoliyani muhofaza qilishning huquqiy asoslari" T. 2015

¹. O'zbekiston Respublikasi qonunlari to'plami. (2000-2005 yillar). – Toshkent: "Adolat", 2007. – B 216- 482.

2. Qashqadaryo viloyatining 2013-2017 yillarda atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha xududiy dasturdagi tadbirlarning 2015 yil davomida bajarilishi bo'yicha taxliliy ma'lumot. Bayonnomalar – 18. –B 9-13.

suvsiz, issiq, har xil kasallik va epidemiyalar avj olgan, zaharli gazlarga boy vatanni meros qoldirishimizga to'g'ri keladi. Axir bejizga O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi kitobi "AVESTO" da Tuproq, Suv, Havo va Olov ulug'lanmagan. Bular 4 unsurlar bo'lib, ularni iflos qilish eng kata gunoh bo'lgan. Keling, Bugundan bir tan-u jon bo'lib ona zaminni asraylik, Tabiatni va Qonunlarni hurmat qilib avlodlarga maqtagulik yurtni meros qoldiraylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ashurov.M.S, SHokirova.Yu.S "Ekologik muammolar va ularni hal qilishda ekologik menejmentning strategik yo'naliishlari" Farg'ona 2021
2. X.T.Tursunov, T.U Rahimova."Ekologiya" Toshkent 2006.
3. Abdunazarov H.M., Choriev.A.Q., Embergenov N.J., Oteuliev M.O. Issues of human economic activity and environmental protection. "Экономика и социум" №11(78) 2020, P. 23-26.
4. K.A.Allanov, A.Q.Choriev, N.J.Embergenov. Ecological Condition of Surkhan Oasis and its Impact on the Health of the Population. Science and education in Karakalpakstan. №1. – Nukus, 2020. p.101-103.
5. N.J.Embergenov, Kh.Abdunazarov, M.Umarova, Kh.Niyozov. Issues of Development of Industrial Sectors in Surkhandarya Province. Science and education in Karakalpakstan. №3. – Nukus, 2019. p.99-102.
6. Navruzbaeva, G. T., Embergenov, N. J, Oteuliev, M. O. (2018) "Study of The Contemporary State of the Environment and The Status of Population Health in The Conditions of Southern Aral Region, Karakalpak Scientific Journal. Vol. 2, Iss. 1. 2018, -P. 29-31.
7. Turdimambetov I., Madreymov A., Foldvary L., Oteuliev M., Kurbanov M., Utarbaeva K., Bekanov K. Influence of Adverse Ecological Factors on the Incidence of Malignant Neoplasms. E3S Web Conf. Volume 227, 2021, Annual International Scientific Conference on Geoinformatics – GI 2021: "Supporting sustainable development by GIST".
<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202122702001>.